

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-May, 2026-yil

ISAJON SULTONNING “ISMSIZ QAHRAMON HAQIDA HIKOYA” ASARIDA QAHRAMONLIK VA VATANPARVARLIK TALQINI

Rashidov Ruslan Abdurauf o’g’li

*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xalqaro jurnalistika fakulteti 4-kurs talabasi.*

Ruslanrashidov010@icloud.com

KIRISH

O‘zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi asarlar milliy o‘zlikni anglash, xalqning o‘tmishini eslash hamda ajdodlar jasoratini ulug‘lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mustaqillik davri adabiyotida tarixiy qahramonlar obraziga murojaat qilish orqali milliy ruh va ma’naviy qadriyatlarni tiklashga alohida e’tibor qaratildi. Ana shunday asarlardan biri Isajon Sultonning “Ismisiz qahramon haqida hikoya” asaridir.

Mazkur hikoyada qadimgi xun xalqi hayoti, ularning bosqinchilarga qarshi kurashi hamda oddiy bir askarning yuksak jasorati tasvirlangan. Muallif asar orqali haqiqiy qahramonlikning mohiyatini ochib beradi. Hikoyadagi Mitti obrazi xalq va Vatan uchun jonini ayamaydigan fidoyi inson timsolida gavdalantirilgan.

Asarning tarixiy va badiiy asoslari

Hikoya voqealari qadimgi xunlar va xanzular o‘rtasidagi janglar fonida tasvirlanadi. Muallif tarixiy voqelikni badiiy tasvir bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchini uzoq o‘tmish muhitiga olib kiradi. Asarda jang maydonining loy, yomg‘ir va sovuq bilan tasvirlanishi voqealarning dramatik ruhini kuchaytiradi.

Yozuvchi tarixiy tafsilotlarni oddiy bayon etish bilan cheklanmaydi, balki ularni inson ruhiyati bilan bog‘laydi. Xunlarning son jihatdan kam bo‘lsa-da, kuchli iroda va jangovar ruhga egaligi xalqning ichki qudratini ifodalaydi. Shu jihatdan hikoya nafaqat tarixiy, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega.

Asarning markaziy qahramoni — Mitti. Uning tashqi ko‘rinishi oddiy, hatto zaifdek taassurot uyg‘otadi. Biroq yozuvchi aynan shu oddiy yigit orqali chinakam qahramonlik mohiyatini ochib beradi. Mittining jangga hech ikkilanmay chiqishi uning jasoratini ko‘rsatadi.

Asarda qahramonning quyidagi jihatlari alohida namoyon bo‘ladi:

qo‘rqmaslik;

vatanga sadoqat;

fidoyilik;

matonat;

ruhiy kuch.

Mitti jang davomida yaralangan bo‘lsa ham, taslim bo‘lmaydi. Aksincha, uning ichki qudrati yanada ortadi. Bu holat yozuvchi tomonidan qahramon ruhiyatining yuksak darajada

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-May, 2026-yil

tasvirlanganidan dalolat beradi. Mittining yolg‘iz holda xanzular safiga bostirib kirishi esa uning nafaqat jasur, balki millat sha’nini himoya qiluvchi fidoyi inson ekanini ko‘rsatadi.

Muallif qahramonning ismsizligini ham ramziy ma’noda qo‘llaydi. Chunki tarixda nomi saqlanmagan, ammo xalq ozodligi va yurt tinchligi uchun kurashgan insonlar juda ko‘p bo‘lgan. Mitti obrazi ana shunday barcha noma’lum qahramonlarning umumlashma timsolidir.

Hikoyaning asosiy g‘oyasi — Vatan uchun xizmat qilish va xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yishdir. Mittining hech kimi yo‘qligi, boylik yoki mansabga ega emasligi uning jasoratini yanada ulug‘vor qiladi. Chunki u moddiy manfaat emas, balki yurt taqdiri uchun kurashadi.

Asarda xun askarlarining Mittidan ruhlanib jangga kirishi ham muhim badiiy detal hisoblanadi. Demak, bir insonning jasorati butun xalq ruhiyatiga ta’sir qilishi mumkin. Bu esa yozuvchining xalq birligi va milliy g‘urur haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Hoqonning qahramon jasaki oldida sukut saqlashi va uning peshanasidan o‘pishi esa asardagi eng ta’sirchan sahnalardan biridir. Ushbu lavha orqali muallif haqiqiy qahramon xalq qalbida abadiy yashashini ta’kidlaydi.

Asarda tasviriy vositalardan samarali foydalanilgan. Jumladan: tabiat tasviri orqali ruhiy holat ochib beriladi; mubolag‘a qahramon jasoratini kuchaytiradi;

taqqoslash va epitetlar jang manzaralarining ta’sirchanligini oshiradi. Xun askarlarining “selday”, “dovul kabi” bostirib borishi jangning shiddatini yorqin ifodalaydi. Masalan, "lekin bu o‘qlar Mittiga ari chaqqanchalik ta’sir qilmaganga o‘xshardi, u quyundek bo‘lib xanzu askarlarining bir nechasini ag‘dardi, qolganlari esa pala- partish qocha boshladilar", yoki "Tushdan so‘ng siyrak tuman orasidan sarg‘imtir dog‘day bulib quyosh ko‘rindi", yoki "Xun askari guvillab o‘rnidan qo‘zg‘aldi, xuddi Amu kabi shiddat bilan, selday bo‘lib xanzu ustiga oqdi” kabi tasvirlarda yozuvchining mahorati yanada namoyon bo‘lgan, Xun askarining guvillab qo‘zg‘olishi- arilar uyumining uyg‘un holda bir yerdan ikkinchi joyga ko‘chishini ko‘z oldimizga keltirsa, xunlarning xanzularni bosib olishi Amudaryoning shiddatli, tez, selday, atrofdagi barcha-barcha narsalarni qo‘shib oqizib ketishiga o‘xshatilgan. Buni bugungi o‘quvchi tasavvurida aniq jonlantirish uchun dronlar orqali qalban yuqoridan kuzatish kerak bo‘ladi. Umuman, bu tasvirlar o‘quvchi qalbida kuchli hissiy ta’sir uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sultonning “Ismsiz qahramon haqida hikoya” asari o‘zbek adabiyotidagi yuksak badiiy va ma’naviy ahamiyatga ega tarixiy hikoyalardan biridir. Asarda qadimiy turkiy xalqlarning, jumladan, o‘zbek xalqining ham, vatanparvarlik, jasorat, fidoyilik va xalq birligi g‘oyalari chuqur badiiy talqin etilgan. Mitti obrazi - umumlashma obraz, milliy qahramonlikning yorqin timsoli sifatida gavdalangan. Bunday qahramonlar tarixda ko‘p bo‘lgan, biz ularning ko‘pchiligini bilmaymiz, asar nomi esa aynan shunga ishora qiladi.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-May, 2026-yil

Mazkur hikoya yosh avlodni Vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat va yurt oldidagi mas’uliyat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois asar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan badiiy namunalardan biri hisoblanadi.

Xunlar – bugungi turkiy xalqlarning qadimiy ajdodlari.

Xanzular – Tiyonshon etaklarida yashagan va xunlar bilan uzoq yillar davomida urush qilib kelgan qabila nomi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isajon Sulton. Ismsiz qahramon haqida hikoya. – Toshkent, 2013.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Xunlar va qadimgi turkiy xalqlar haqidagi maqolalar. – Toshkent, 2005.
3. O‘zbek adabiyotida tarixiy mavzu va qahramonlik talqini bo‘yicha ilmiy maqolalar.